



YUSUF XOS HOJIBNING “QUTADG’U BILIG” ASARIDAGI LEKSIK XUSUSIYATLAR

Jumanazarova Saida Rustambek qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti, 3-bosqich talabasi

Sirojiddin Pardayev

Ilmiy rahbar:

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 01-yanvar 2024 yil

Ma'qullandi: 03-yanvar 2024 yil

Nashr qilindi: 05-yanvar 2024 yil

KEY WORDS

*Leksik birlik, janr, lisoniy jihatlar,
tadqiq, tahlil, tildagi umumiylik*

ABSTRACT

Ushbu maqolada “Qutadg’u bilig” asarining leksik xususiyatlari misollar orqali yoritib berilgan va hozirgi tilimizdagi leksik birliklar bilan ham solishtirilib ketilgan.

Qadimgi turkiy tilimizni o'rganishimizda bizga bevosita yordan beradigan kitoblar talaygina. Bularga eng yorqin misol “Qutadg’u bilig” va “Devoni lug’atit turk” asarlaridir.

Bilamizki, “Qutadg’u bilig” asarining 3 ta eng katta nusxasi mavjud:

1. 1439-yilda Hirotda uyg’ur yozuvida ko’chirilgan bo’lib hozirgi kunda Vena saroy kutubxonasida saqlanib kelinmoqda;
2. 1896-yilda Qohiradan topilgan va arab yozuvidan ko’chirilgan;
3. 1913-yil Namangandan topilgan va 1925-yil Abdurauf Fitrat tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. Hozirgi kunda Toshkentdagi O’ZFA Sharqshunoslik institutida saqlanmoqda.

Asarning asosiy xususiyatlari haqida to’xtalsak, janr jihatdan o’sha davr uchun katta yangiliklardan biri bo’ldi, tildagi umumiylikni ta’minladi hamda O’rxun-Enasoy yodgorliklarining lisoniy jihatlari ham yoritib o’tilgan edi.

Asarning ilk nashri 1870-yilda H.Vamberi tomonidan amalga oshirilgan. Shundan keyin bu asar 1890-1910 yillarda V.Radlov, 1929-1951 yillarda S.Ye.Malov, 1942-1943-1947-1959 yillarda esa R.R.Arat kabi rus olimlari tomonidan o’rganib tadqiq etilgan. 1984-yil uyg’ur olimlari nashr ettirishadi. 1971-yilga kelib o’zbek olimlaridan Q.Karimov, 1989-yilda B.To’xliyev o’rganib chiqishadi. Asar ingliz, nemis, fransuz, rus, chex, turk, uyg’ur, xitoy va boshqa tillarga tarjima qilingan. Uni J.Amade, A.Fitrat, R.Arat, Ye.E.Bertels, H.Vamberi, V.Radlov, S.Malov, A.N. Kono-nov, S.N.Ivanov, D.Nasilov, A.Valitova, G’.Abdurahmonov, Q.Karimov, B.To’xliyev, Q.Sodiqov va boshqa chet el va o’zbek olimlari tadqiq va tahlil qilishgan edi.¹

Asarni “Devoni lug’atit turk asari bilan ba’zi joylarini solishtiradigan bo’lsak,

¹ wikipedia.org

“Devoni lug‘atit turk”	“Qutadg‘u bilig”
-chi; shaxs oti yasovchi sifatida keltiriladi	o‘zgcha shaklda-ozuntchi sifatida ya‘ni alohida harekterli ezma odam
-gu, -g‘u, -ni, -qu barchasi tor ma’noda	o‘nlab ma’no yasaydi: at tushagu bo‘ldi (sifatdosh) bu ash uskhut (mavhum ot) yana borg‘u ersa (zarurlik)

Bundan tashqari asarda arabcha va forscha so‘zlarda ham foydalanilgan. Arabcha so‘zlar juda ham ko‘p aytib o‘tilgan. Misol uchun:

Muhammad, Yusuf, mamlakat, madrasa, adolat, namoz, davlat, kitob, olim, adolatsizlik.

Forscha so‘zlar esa nisbatan kamroq foydalanilgan. Misol uchun:

Bozor, tuxum, non, pul, osomon, pokiza, do‘st, gul, go‘sh.

O‘rxun-Enasoy yodgorliklariga xos bo‘lgan leksik xususiyatlari.

at (hayvon)
at (ism)
at (fe‘l)

OMONIMLAR

achchig‘ (achchiq)
achchig‘ (toza)

yorug‘-qorong‘u
yaxshi-yaman

ANTONIMLAR

olis-yaqin
qatig‘-yumshoq

ag‘rig‘-iglig

SINONIMLAR

achig‘-silig

Yonma-yon kelgan sifatlar ma'nosi ham ko'rsatib o'tilgan.

Saroy-qarshi	Kuch-quvvat
Mol-mulk	imkoniyat

Hozirgi tilimizda qo'llanuvchi leksik birliklar:

1. Ot: Quloq, yurak, yigit, tash, el, idish
2. Sifat: Sariq, qara, ko'k, qizil, isig'
3. Son: Bir, iki, besh, min
4. Olmosh: Sen, mel, ul, munday
5. Fe'l: Kel, ker, tur, ich

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yusuf Xos Hojibning „Qutadg'u bilig“ asari, T., 1991;
2. Qayumov A., Ishoqov M., Otaxo'jayev A., Sodiqov Q., Qadimgi yozma yodgorliklar, T., 2000.
3. Abdishukurov B. Qadimgi turkiy til. – Toshkent: "Navoiy universiteti" nashriyot-matbaa uyi, 2019.
4. Abdurahmonov G'., Rustamov A. Qadimgi turkiy til. Toshkent: O'qituvchi, 1982.
5. Abdurahmonov G'., Shukurov Sh., Mahmudov Q. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. – Toshkent: "O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati" nashriyoti, 2008.
6. Rahmonov N., Sodiqov Q. O'zbek tili tarixi. – Toshkent: "O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati" nashriyoti, 2009.
7. Sodiqov Q. Qadimgi turkiy yozuvlar. – Toshkent: 1995.
8. www.arxiv.uz

INNOVATIVE
ACADEMY